

---

## MAHSULOTLARIMIZNI SIFATI VA TURI ORTMOQDA

“Odilov Javlanbek fayz” oilaviy korxonasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan qurilish mahsulotlari yuqori sifati bilan ajralib turadi.

2019 yilda tashkil etilgan korxonada o'tgan davr mobaynida mahsulot turlarini ko'paytirishga e'tibor qaratdi. Ayni vaqtda bu yerda 20 turdan ortiq bo'r va gips, lak-bo'yoq, shpatlyovka, rotband, travertin, kafel kleylari va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Keyingi paytlarda aholining qurilish materiallariga ehtiyoji ortib bormoqda,-deydi tadbirkor Islombek Odilov. “Zarkent” MFYda ishlab chiqarilayotgan qurilish mahsulotlarimizning sifati va arzonligi aholiga manzur bo'lmoqda. Sababi barcha mahsulotlar zamonaviy texnologiyalarda ishlab chiqarilmoqda. Xozirgi kunda 5 nafar yoshlarni ish bilan ta'minlaganmiz.

2023-04-17 11:34:12